DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23910381

GLOBAL PERSPECTIVES
LAW ENFORCEMENT, CYBER DEFENSE AND MULTIDISCIPLINARY INNOVATION

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING MAHALLA HUDUDIDAGI KRIMINOGEN VAZIYATLARNING OLDINI OLISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Xolmurodov Diyorbek Tolib o'g'li
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining mahalla hududidagi kriminogen vaziyatlarni barvaqt aniqlash, bartaraf etish va uning oldini olish borasidagi faoliyatini tashkil etishning nazariy-huquqiy hamda amaliy jihatlari tadiq etilgan. «Mahalla yettiligi» tizimi bilan hamkorlikni kuchaytirish, hududning kriminogen xususiyatlaridan kelib chiqib manzilli profilaktika choralarini qo‘llash hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirishga doir ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: profilaktika inspektori, mahalla, kriminogen vaziyat, huquqbuzarliklar profilaktikasi, «mahalla yettiligi», raqamli monitoring, jinoyatchilikni jilovlash, ijtimoiy muhit, kriminologik tahlil, hamkorlik.

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikning barvaqt oldini olish hamda huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablarini ildizi bilan bartaraf etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada bevosita quyi bo‘g‘inda — bevosita mahalla darajasida xizmat olib boruvchi profilaktika inspektorlarining roli beqiyosdir. Har bir ma’muriy hududning o‘ziga xos kriminogen xususiyatlari, aholining ijtimoiy-demografik tarkibi hamda hududda sodir etiladigan huquqbuzarliklarning turlaridan kelib chiqib, kriminogen vaziyatni barvaqt bashorat qilish va oldini olish dolzarb vazifa hisoblanadi [1].

O‘zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi Qonuni hamda boshqa qator normativ-huquqiy hujjatlarda profilaktika inspektorlarining mahallada jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar sodir etilishi mumkin bo‘lgan latent omillarni aniqlash va ularga chek qo‘yish bo‘yicha vakolatlari aniq belgilab berilgan [2].

Profilaktika inspektori tomonidan mahalla hududidagi kriminogen vaziyatni barvaqt aniqlash va oldini olish faoliyati quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

Kriminogen tahlil va monitoring: Hududda sodir etilgan jinoyatlar, ma’muriy huquqbuzarliklar hamda oilaviy-maishiy nizolar dinamikasini har oyda chuqur tahlil qilish, «xavfli hududlar» (qorong‘u ko‘chalar, qarovsiz binolar, tungi ko‘ngilochar maskanlar)ni aniqlash;

«Mahalla yettiligi» bilan muvofiqlashtirilgan faoliyat: Hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim, soliq inspektori va mahalla raisi bilan hamkorlikda ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishsiz, muqadrab sudlangan yoki spirtli ichimliklar iste’mol qiluvchi shaxslar bilan manzilli ishlash [3];

Barvaqt profilaktika choralari: Huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarga nisbatan huquqiy targ‘ibot va individual profilaktik suhbatlarni o‘tkazish. Shunday qilib, profilaktika inspektorining mahalladagi faoliyati nafaqat sodir etilgan jinoyatlarni fosh etishga, balki eng avvalo, kriminogen vaziyatni sog‘lomlashtirish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga qaratilmog‘i lozim.

Profilaktika inspektorlarining mahalla hududida kriminogen vaziyatni jilovlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish borasidagi kundalik faoliyati kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mahallada jinoyatchilikni jilovlashda faqatgina sodir etilgan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bilan cheklanib qolmay, balki uning sabablarini keltirib chiqaruvchi omillarni erta aniqlash va bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Ushbu yo‘nalishdagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishning asosiy amaliy mexanizmlari quyidagilardan iborat:

1. Hududiy kriminogen xaritani shakllantirish va manzilli profilaktika. Har bir profilaktika inspektori o‘ziga biriktirilgan ma’muriy hududning «kriminogen xaritasi»ni yuritadi. Bunda jinoyatlar ko‘p sodir etiladigan manzillar, qarasiz qolgan binolar, tungi paytda fuqarolar to‘planadigan va huquqbuzarlikka moyil shaxslar ko‘p bo‘lgan joylar alohida nazoratga olinadi [2].

2. «Mahalla yettiligi» bilan kompleks xamkorlikni amalga oshirish. Hududdagi kriminogen muhitni sog‘lomlashtirishda mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim hamda soliq inspektori bilan uzviy ravishda ish olib boriladi. Ishsiz yurgan yoshlar, muqaddam sudlanganlar va spirtli ichimliklar iste’mol qiluvchi shaxslar bilan individual profilaktik suhbatlar o‘tkazilib, ularni bandligini ta’minlash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘riladi [3].

3. Raqamli texnologiyalar va videokuzatuv tizimlaridan foydalanish. Mahallalarda «Xavfsiz mahalla» konsepsiyasi doirasida o‘rnatilgan videokuzatuv

GLOBAL PERSPECTIVES
LAW ENFORCEMENT, CYBER DEFENSE AND MULTIDISCIPLINARY INNOVATION

kameralari monitoringini yuritish, huquqbuzarliklarni erta aniqlash va fosh etishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalaniladi [4].

Profilaktika inspektorining mahalladagi kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish borasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, kriminogen xavf-xatarlarni bashorat qilishning raqamli modulini joriy etish. Ichki ishlar organlarining axborot tizimlariga hududiy statistika va ijtimoiy omillarni kiritish orqali qaysi mahallada jinoyat sodir etilish ehtimoli yuqori ekanligini oldindan bashorat qiluvchi analitik tizimni takomillashtirish [5];

Ikkinchidan, profilaktika inspektorining hududiy ijtimoiy institutlar bilan hamkorlik mexanizmini kuchaytirish. Oilaviy nizolarning oldini olish maqsadida mahallada psixologlar va jamoatchilik vakillaridan iborat «yarashtiruv va maslahat guruhlari» faoliyatini jonlantirish;

Uchinchidan, moddiy-texnik bazani yanada yaxshilash. Profilaktika inspektorlarining xizmat xonalarini zamonaviy aloqa vositalari, transporti va raqamli planshetlar bilan to‘liq ta’minlash orqali ularning tezkorligini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, profilaktika inspektorining mahalla hududidagi kriminogen vaziyatni jilovlash va barqarorlashtirish borasidagi faoliyatini raqamlashtirish, jamoatchilik institutlari bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish — mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va huquq-tartibotni ta’minlashning eng muhim garovi hisoblanadi.

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi 2014-yil 14-maydagi O‘RQ-371-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.05.2014-y.

2. O‘zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»gi 2016-yil 16-sentabrdagi O‘RQ-407-son Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 38-son, 438-modda.

3. Profilaktikaning huquqiy asoslari va amaliyoti: Darslik / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. – B. 140–160.

4. Mahallalarda jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklarning oldini olish mexanizmlari: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2023. – B. 95–110.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23910381

5. Kriminologiya: Darslik / y.f.d., prof. Z. S. Zaripov tahriri ostida. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020. – B. 210–230.